

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON**  
**TILLARI UNIVERSITETI**

**MUSTAQIL ISH**

Mavzu: Xitoy tarixshunosligi.  
Ilk tarixiy manbalar.

Bajardi: Tarjima nazaryasi va amaliyoti fakulteti Xitoy tili  
yo'nalishi 305 guruh talabasi Abidov R

Toshkent - 2016

## **REJA:**

1. In xarobalari haqida ma'lumot.
2. "Chun qiu" asari
3. Sima Qianmning "Shi ji" asari haqida a'lumot

Xitoy uzoq va yorqin tarixga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Tarixiy manbalarga asoslanib uni uch ming yillik tarixga ega ekanligini bilamiz, lekin

manbalarsiz ham Xitoy besh ming yildan ko'proq tarixga ega deyish mumkin. Bu tarix shu kungacha to'xtab qolmagan va o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagan. Garchi Xitoy shu bugunga qadar turli qiyinchilik va hujumlarga uchragan bo'lsada, jahon sahnasida o'z o'rnini yo'qotmagan. Xitoyning mafkuraviy kuchi shundaki, uning tarixi va madaniyati bilan birgalikda tog'lari va daryolari beqiyos go'zallikka ega. So'nggi 30 yil ichida dunyo Xitoyning yangi-yangi mo'jizlariga guvoh bo'lmoqda va ayni paytda uning tengsiz madaniyati va tarixiga yanada ko'proq e'tibor bermoqda. Odamlar Xitoy taraqqiyotining tarixiy manabalarini topishga harakat qilishmoqda. Dunyo nigohini ushbu qadimiy va ayni paytda yosh bo'lgan davlatga qaratgan. Minglab chet elliklar uning o'tmishini va hozirgi kundagi yutuqlarini ko'rishga kelmoqda.

Xitoyning ilk tarixiy manbalari haqida gapirar ekanmiz eng avvalo iyerogliflardan boshlaymiz. Chunki har qanday tarixiy manba yozuvlar orqali amalga oshiriladi.

Butun dunyodagi yozuvlar tizimi ichida xitoy iyerogliflari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Eng qadimgi iyeroglif yozilgan topilmalar Yin xarobalaridan topilgan. Yin shahri Shang sulolasining poytaxti bo'lgan va bu shahar xarobalari hozirgi kunda Henan provinsiyasi Anyang shahridan 25 kilometr uzoqlikdagi Xiaotun qishlog'ida joylashgan.





Oradan uch ming yil o'tdi, XIX asr oxirlarida Xiaotun qishlog'ida dehqonlar yerga ishlov berayotgan paytda suyak qoldiqlarini tez-tez topib olishardi. Ba'zilarining yuza qismida naqsh bo'lardi, shuning uchun bunday suyaklarni "ajdarho suyaklari" deb atashardi va bezgak va yarani davolash maqsadida dorixonalarga sotishardi. Pekinda antik buyumlar sotuvchilari bunday suyaklarni kamyob dori sifatida sotishardi. "Ajdarho suyaklari" bir kuni epigraflar bo'yicha mutaxasis Wang Yirong qo'liga tushib qoladi. Wang Yirong bezgakdan azob chekardi va xitoycha dorilar olish uchun kelardi. U dorini olgan paytda "ajdarho suyaklari" ustidagi hayvon va inson shaklini eslatuvchi shakllarni ko'rib hayratga tushadi. Ehtiyotkorlik bilan o'tkazilgan tekshiruvlardan so'ng u bu naqshlar qadimgi davr iyerogliflari ekanligini anglab yetadi. Suyaklar ustiga Shang sulolasi davridagi imperatorlar ismi bitilgan ekan. Qadimgi yozuvlar bilan shug'ullanuvchi Luo Zhenyu va Liu E asl suyaklarni qidirishga tushadi va ushbu "ajdarho suyaklari"ni sotgan antik

buyumlar savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogarni topishadi. Savdogar bu suyaklar Henanning Tangyin shahridan keltirilgan deb ularni chuv tushiradi. Garchi Wang Yirong suyaklarning minglab bo'laklarini katta narxda sotib olgan bo'lsada, "ajdarho suyaklari" joylashgan haqiqiy hudud haqida ma'lumotga ega bo'la olmaydi. Luo Zhenyu suyaklarni haqiqiy hududini bilish uchun pora beradi va ko'proq ma'lumotlar izlashda davom etadi. Toshbaqa kosalari va suyaklar ustiga yozilgan yozuvni kashf etilishi arxeologiya uchun katta yangilik bo'ldi. Yin xarobalari butundunyo nigohini o'ziga qarata boshladi. Shang sulolasi shajarasi haqida Sima Qianning "Shi ji" (Tarixiy xotiralar) asarida keltirib o'tilgan. Afsuski, bir yillik izlanishlardan so'ng Wang Yirong sakkizta g'arbiy millatlar birlashuvidan iborat qo'shin hujumiga qarshi jangga ketadi. Lekin Xitoy qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi va Wang Yirong xotini bilan birgalikda o'z joniga qasd qilishadi.



1928-1937-yillar oralig'ida Xitoy Yin xarobalarida 15 marotaba qazish ishlarini olib oradi. Xitoy va Yaponiya o'rtasida yana urush boshlanadi. Yaponlar Yin xarobalarida qazish ishlarini olib borishadi va topilgan yodgorliklarni Yaponiyaga olib ketishadi. 1949-yildan boshlab arxeologik ishlar Xitoy hukumati tomonidan amalga oshiriladi. Kashf etilganidan boshlab 8 yil mobaynida qazish ishlari olib boriladi va arxiv ma'lumotlari ochiladi. Yin




xarobalari tuzulishi va statistikasi asta-sekinlik bilan bizga oydinlashdi. Yin xarobalarining umumiy maydoni 30 kvadrat kilometr. U yerda 50 dan ortiq tarixiy saroylar, ibodatxonalar va boshqa arxitektura inshootlari mavjud. Bundan tashqari 12 ta qirollik maqbarasi, minglab oddiy odamlar va zodagonlar qabri, 1000 ta qurbonlik qilish uchun chuqurlar, 1700 ta sardoba, 5 ta hunarmandlar ustaxonasi, 4500 ta iyeroglifdan 1700 tasini o'qisa bo'ladigan umumiy hisobda 1.6 million so'zdan iborat bo'lgan suyak qoldiqlari bor va shuningdek bir qancha bronza buyumlar, nefrit buyumlar, sopol buyumlar va suyakdan ishlangan buyumlar topilgan<sup>2</sup>. Tarix va arxeologiya dunyosi bundan larzaga keldi.



Yin xarobalaridan topilgan toshbaqa kosalari va suyaklarga yozilgan yozuvlar Shang sulolasiga oid arxeologik kashfiyotlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yozuvlarni o'rganishda, o'qishda, to'plam holiga keltirishda o'tgan asr oxirlarida samarali yutuqlarga erishildi. Yozuvlar Cang Jie kashfiyotlari afsonasi davriga kelib bir muncha yozuv tizimi holiga kelib qolganini isbotlaydi. Xitoy yozuvi, ya'ni sakrovchi usul bilan yozilgan bu yozuvlar idiogrammik shakldagi yozuvlar bo'lgan. Bu yozuvlar bugungi kunda

ishlatilayotgan yozuvdan keskin farq qiladi. Eng birinchi yozuvlar bronza idishlarga, bambuk tayoqchalariga va keyinchalik qog'ozlarga yozila boshlagan. Shuningdek to'g'ri yozuv, yuguruvchi yozuv, rasmiy yozuv, dumoloq yozuv kabi yozuv turlari bo'lgan. Keyinchalik bu yozuv turlaridan Xitoy kalligrafiyasi vujudga kelgan. Xitoy davlati juda katta hududni, turli xil etnik guruhlarni va shevalarni o'z ichiga oladi. Xitoy yozuvi mamlakatni birlashtirilgan qismida odamlarning aloqa vositasi bo'lib kelgan.



1961-yilda Davlat konsuli Yin xarobalrini Mamalakat himoyasi ostidagi madaniy yodgorliklar ro'yhatiga qo'shdi. Asosiy himoyalangan hudud Xiaotun qishlog'i atrofidagi saroylar va ibodatxonalarni o'z ichiga oladi. Bu yerlar avvalari Imperator yashagan va davlat ishlarini olib borgan Imperiya poytaxtining yuragi bo'lgan. Heng daryosining shimoliy sohillarida Wuguan qishlog'ida Imperatorlik maqbarasi joylashgan. Bu yerda Pan Gengdan keyingi barcha imperatorlarning qablari bor. Bu joy shuningdek ajdodlarga bag'ishlab toat-ibodat marosimlari, qurbonlik marosimlari o'tkaziladigan joy bo'lgan.



2006-yil iyul oyida YUNESKO Yin xarobalarini Dunyo madaniy merosi sifatida ro'yhatga oldi.

Xitoyning beqiyos tarixidan darak beruvchi manbalardan biri “Chunqiu” (Bahor-kuz) asaridir. Bu asar yana “Lin jing” (麟经), “Lin shi” (麟史) deb ham ataladi. Asar Lu (鲁) podsholigining tarixiy yilnoma asari bo'lib, Konfutsiy tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan. Ushbu kitob Lu Yin (鲁隐) davridan(miloddan avvalgi 722-yil) to Lu Ai (鲁哀) davrigacha (miloddan avvalgi 481- yil) bo'lgan tarixiy voqealarni o'zida jamlaydi. “Chunqiu” asarining tarixiy ahamiyati juda katta, lekin asar to'liq emas. Bundan tashqari asar konfutsiylik ta'limotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi Xitoyda bahor va kuz fasli podshohlar uchun muqaddas joylarga ziyorat uyushtirish davri hisoblangan. Bundan tashqari qadimda bahor va kuz bir yilni ifodalagan va tarixiy kitoblarga bir yil ichida sodir bo'lgan katta voqealarni yozib borishgan. Shu tufayli ushbu kitob “Chun qiu” nomini olgan va Lu podsholigida ham rasman “Chun qiu” deb nomlangan. Ba'zi manbalarga ko'ra bu kitob Konfutsiy asari deyiladi, ayrimlariga ko'ra esa Lu podsholigining ayonlari to'plagan tarixiy manba deyiladi. Bu asarda nafaqat tarixiy faktlar, yana muallifning fikri ham bayon etilgan.



“Chun qiu” asarining tili juda qisqartirilgan, voqealar sodda ifodalangan. 241-yili ichidagi podsholiklarning janglari, kimlar bilan ittifoq tuzgani, davlat boshqaruv shakli va marosimlari, urf-odatlarining hammasi kitobga kiritilgan. Kitobda Lu podsholigining 12 ta hukmdorlari haqida ma’lumot berilgan va bu ma’lumotlar to’g’riligi isbotlangan. Yana kitobda quyosh tutilishi haqida ham ma’lumotlar bor va bu ma’lumotlar g’arbliklarning ma’lumotlari bilan solishtirganda 30 marotabadan ko’prog’i bir-biriga mos kelgan. Bundan ko’rinib turibdiki, “Chun qiu” asari qadimgi odamlarning shunchaki hayotot natijasida emas, balki ishonchli ma’lumotlar asosida yozilgan. Albatta, uzoq muddat qog’ozdan-qog’ozga o’tish jarayonida ma’lum bir xatoliklarga uchraganini inkor etib bo’lmaydi.

“Chun qiu” asari ilk yozilgan davrlarda 18000 dan ko’proq iyeroglif bo’lgan, hozirgi kunda chiqqan nashrida esa 16000 dan ko’proq iyeroglif bor. Asar tili juda ko’p qisqartirishlarga uchraganini bios uni tushunish juda qiyin. Shuning uchun kitobdagi voqealarga tushuntirish va izohlar berilib, ularni “Zhuan”( Izoh) deb atala boshlandi. Shular orasidan Zuo Qiuming (左丘明) ning “Chun qiu zuo shi zhuan” (春秋左氏传), Gong Yanggao (公羊高) ning “Chun qiu gong yang zhuan” (春秋公羊传), Gu Liangchi (谷梁赤) ning “Chun qiu gu liang zhuan” (春秋谷梁传) asarlari birlashtirilib “Chun qiu san zhuan” (Bahor-kuzga uch izoh) deb ataldi va konfutsiylik ta’limotining muqaddas kitoblar qatoriga kiritilgan. Bu uch asar bir-biriga o’xshasada, lekin ozgina farqi bor. “Chun qiu gong yang zhuan” va “Chun qiu gu liang zhuan” asarlarida e’tibor “teran ma’noli ulug’vor so’zlar” ga qaratilgan bo’lsa, “Chun qiu zuo shi zhuan”da esa asosiy e’tibor tarixiy faktlarga qaratilgan va “Chun qiu” kirtilmagan ba’zi buyuk ishlarni yozib qoldirilgan.

Xitoyning ilk tarixiy manbalari haqida gapirar ekanmiz “Shi ji” (Tarixiy xotiralar) asarini gapirmaslikning iloji yo’q. Uni “Xin shi” (Ishonchli tarix) deb

ham yuritishadi. Ushbu asar G'arbiy Han davridagi Sima Qian (司马迁) degan odam tomonidan umumiy hisobda 13 yil vaqt sarflab tugatilgandir.